

**UDK. 619:636.5:616.99:616.084**

**MAJBURIY SO'YILGAN HAYVON GO'SHTIGA VETERINARIYA  
SANITARIYA JIHATIDAN BAHO BERISH**

**Rasulov U.I.** – vet.fan.doktori, dotsent

**Asomiddinov U.** – assistent

**Suyunov R.U.** – assistent

**Ilyasov Z.** – assistent

**Suyunova Z.** – 4 bosqich talaba

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti.

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada qishloq xo'jaligi hayvonlaridan olinadigan go'sht to'g'risida fikrlar bildirilgan. Bundan tashqari majburiy so'yilgan hayvonlar go'shtini veterinariya sanitariya jihatidan baholash borasida tadqiqot natijalarining xulosalari bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** go'sht, qoramol, majburiy so'yilgan, tana go'shti, orgonoleptik va laborator tekshirishlar, xavfsizlik.

**Kirish.** Hozirgi kunda chorvachilik mahsulotlarining sifatini pasaytiruvchi omillardan biri qishloq xo'jalik hayvonlari orasida uchraydigan turli xildagi kasalliklar hisoblanadi. Shu bilan birga, go'sht va go'sht mahsulotlarining nafaqat biologik qiymati, balki, birinchi navbatda ularning veterinariya sanitariya sifati pasayadi. Barcha turdagi hayvonlar go'shtini va undan tayyorlanadigan go'sht mahsulotlarini ishlab-chiqarishga e'tibor berilishi bilan birgalikda go'shtni qayta ishlashda yangi texnologik jihatlariga tayangan holda ish tutilishi kerak. Prezidentimizning 2020-yil 29-yanvardagi PQ-4576-son qarorida chorvachilik tarmog'ini jadal rivojlantirish, zamonaviy va innovatsion uslublarini joriy etish, mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirish va turlarini kengaytirish, shuningdek, aholini maxalliy sharoitda ishlab chiqarilgan sifatli va arzon chorva mahsulotlari bilan uzluksiz ta'minlash hamda chorvachilikka ixtisoslashtirilgan korxonalarni davlat tamonidan qo'llab quvvatlash maqsadi ko'rsatib o'tilgan.

Fuqarolarini to'la qiymatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashda go'sht va undan tayyorlanadigan mahsulotlar muhim ahamiyatga ega. Ba'zida sog'lom hayvonlar to'satdan paydo bo'ladigan har qanday mexanik kuchlarga duch kelganda, u shikastlanadi (sinish, siljish, yorilishi) va uni ushlab turish (saqlash) iqtisodiy jihatdan zararli bo'ladi. Bunday hollarda, egasi hayvonni go'sht uchun so'yishga qaror qiladi. Xuddi shu narsa hayvon to'satdan kolikga, timpaniyaga, ichaklarning buralib qolishiga yoki homilaning noto'g'ri joylashishi yoki tug'ruqdan keyingi parezning o'tkir zaharlanishi, bo'g'ilishi va bu holatlarida tug'ilmasa yuzaga keladi va bu holatlar majburiy so'yish deb ataladi. Majburan so'yish natijasida olingan go'sht bepul sotilmaydi. To'liq hajmda laboratoriya tahlillari bilan, ya'ni majburiy bakteriologik tekshirish bilan veterinariya-sanitariya ko'rigidan o'tkazilishi kerak.

**Mavzuning dolzarbligi va uni asoslash.** Respublikamiz aholisini to'la qiymatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashda go'sht va go'sht

mahsulotlarining sifat ko'rsatkichlari barcha holatlarda ham standart talabiga mos kelishi bilan birgalikda inson organizmiga bezarar bo'lishi lozim. Ayniqsa majburiy so'yilgan hayvonlardan olinayotgan go'sht va boshqa turdagi mahsulotlar inson organizmi uchun zararli bo'lib, ayrim holatlarda insonlarni o'limga olib kelishi mumkin. Hayvonlarni faqat veterinariya mutaxassisi ruxsati bilan majburiy so'yiladi. Majburiy so'yish uchun ixtisoslashtirilgan so'yish korxonalariga olib kelingan hayvonlarni so'yishdan oldin saqlanishi amalga oshirilmaydi. Xo'jalikda hayvonlarni majburiy so'yish sabablari haqida veterinariya mutaxassisi imzolaydigan dalolatnoma tuziladi. Mazkur dalolatnoma va majburiy o'ldirilgan hayvon go'shtining bakteriologik tekshiruv natijalari haqida veterinariya laboratoriya xulosasi hamda veterinariya guvohnomasi bilan birga so'yilgan hayvonni ixtisoslashtirilgan so'yish korxonasiga olib kelishda berilishi kerak, u yerda so'yilgan hayvon qayta bakteriologik tekshiruvdan o'tkaziladi. Hayvon pestitsid va boshqa zaharli moddalar bilan zaharlanganligi gumon qilinganda, go'shtni zaharli moddalarga tekshirish natijalari haqida veterinariya laboratoriyasining xulosasi bo'lishi kerak. Majburiy ravishda so'yilgan hayvonlar go'shtini xo'jaliklardan go'sht ishlab chiqarish korxonalariga olib borish go'sht mahsulotlarini tashish bo'yicha amaldagi veterinariya — sanitariya qoidalariga rioya qilingan holda amalga oshirilishi kerak.

Majburiy ravishda so'yilgan qo'y, echki, cho'chqa va buzoqlar go'shtini to'g'ri ekspertiza qilishini ta'minlash maqsadida go'sht ixtisoslashtirilgan so'yish korxonalariga yaxlit holatda keltiriladi. Yo'lda majburiy ravishda so'yishdan oldin veterinariya ko'rigi o'tkazilmay so'yilgan hayvon go'shti tegishli veterinariya guvohnomasi (ma'lumotnomasi), majburiy so'yish sababi haqidagi veterinariya dalolatnomasi va bakteriologik tekshiruv natijalari haqidagi veterinariya laboratoriya xulosasisiz ixtisoslashtirilgan so'yish korxonalariga qabul qilish taqiqlanadi.

**Maqsad:** majburiy so'yilgan hayvon go'shtini tekshirish, axoli iste'moliga chiqarilayotgan go'sht mahsulotlarining xavfsizligini o'rganish.

**Vazifa:** majburiy so'yilgan hayvonlar go'shtini organoleptik va laborator tekshirish va tahlil qilish.

**Tadqiqot natijalari.** Tadqiqotlar "Veterinariya sanitariya ekspertizasi" kafedrasida, Samarqand viloyati xayvonlar kasalliklari tashxisi va oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi davlat markazida o'tkazildi.

Odamlar tomonidan iste'mol qilinayotgan barcha turdagi mahsulotlar bioekologik jihatidan tabiiy va odamlarning sog'ligiga zarar etkazmaydigan bo'lishi lozim.

Hayvonlarni majburiy so'yishga ruxsat berishdan oldin veterinariya xodimi, ularni kasalligi va xolatini aniq bilishi kerak. Qo'yidagi hayvonlarni so'yishga ruxsat etilmaydi:

1. Hayvonlar o'lim oldi talvasasi xolatida bo'lganda, bu holat qanday sabablar oqibatida bo'lishdan qat'iy nazar (bunda yurak faoliyati pasayadi, refleks yo'qoladi, ko'zning shox pardasi xiralashadi) so'yishga ruxsat etilmaydi.

2. So'yiladigan yosh hayvonlar ikki haftaga yetmagan bo'lsa.

3. Hayvonlar pestitsidlar bilan o'tkir formada zaharlanganda antibiotiklar bilan davolangan ma'lum davr ichida.

4. Kuydirga kasalligiga vaksina yuborilgandan keyin 14 kun ichida, yoki davolash uchun kuydirgi kasalligiga qarshi zardob yuborilganda, oqsil kasalligiga qarshi emlanganida 21 kun davomida. Ba'zi hayvonlarda agar yuqorida keltirilgan emlamlardan keyin hayvonlarda temperatura ko'tarilmasa yoki organizm emlashga qarshi aks holat ko'rsatmasi.

Hayvonlarni majburiy so'yish hamisha veterinariya xodimlarini ruxsati bilan amalga oshiriladi. Yuqorida ko'rsatilganlardan tashqari boshqa yuqumli, invazion va yuqumsiz kasalliklarda, zaharlanishda, jaroxatlanganda, suyaklar singanida va boshqa hayvonlarni xayoti xavf ostida bo'lganda va uzoq muddat davolash talab yetilganda majburiy so'yishga ruhsat beriladi. Majburiy so'yilgandan so'ng olingan mahsulotlarga sanitariya jihatidan to'g'ri baho berishda, avvalombor o'lim oldi talvasasidagi holatni va og'ir patologik jarayonni to'g'ri farqlash va ajrata bilishlik kerak. Bularni to'g'ri farqlash uchun organoleptik ko'rsatkichlarning natijasi, bakteriologik tekshirishlar va zarur xollarda bioximyoviy tekshirishlar natijasida hisobga olinadi.

Xo'jalikda hayvonlarni majburiy so'yish sabablari haqida veterinariya mutaxassisi imzolaydigan dalolatnoma tuziladi. Mazkur dalolatnoma va majburiy o'ldirilgan hayvon go'shtining bakteriologik tekshiruv natijalari haqida veterinariya laboratoriya xulosasi hamda veterinariya guvohnomasi bilan birga so'yilgan hayvonni ixtisoslashtirilgan so'yish korxonasiga olib kelishda berilishi kerak, u yerda so'yilgan hayvon qayta bakteriologik tekshiruvdan o'tkaziladi.

Majburiy ravishda so'yilgan hayvonlar go'shtini xo'jaliklardan go'sht ishlab chiqarish korxonalariga olib borish, go'sht mahsulotlarini tashish amaldagi veterinariya - sanitariya qoidalariga rioya qilingan holda amalga oshirilishi kerak.

Qishloq xo'jalik hayvonlari majburiy so'yilganda doimiy ravishda organoleptik usulda va laboratoriya usullarida tekshirilishi lozim.

**Organoleptik tekshirish usuli.** Go'shtning tashqi yuzasini tekshirayotganda avvalo uning rangiga e'tibor berilib, yuzasi kesib ko'riladi. Go'shtning yopishqoqligi paypaslab aniqlanadi. Yangi kesilgan go'sht yuzasini barmoq bilan bosib ko'rish orqali uning konsistensiyasi aniqlanadi. Go'shtning hidi tashqi va kesilgandan keyin ichki chuqur yuzasida aniqlanadi. Go'shtning hidi to'g'risida to'laroq ma'lumotga ega bo'lish uchun go'sht qaynatiladi. Qaynash vaqtida chiqayotgan bug' yordamida hidi to'laroq aniqlanadi. Shunday qilib go'shtning rangi, hidi, konsistensiyasi aniqlangandan keyin, go'sht yog'ining hidi, rangi va konsistensiyasi aniqlanadi.

**Laboratoriya usullarda tekshirish.** Majburiy so'yimga chiqarilgan hayvonlar go'shtini quyidagilarga e'tibor beriladi: go'shtning rN ko'rsatkichi aniqlanadi. Farmalin reaksiyasi o'tkazilganda qisman cho'kma berdi va loyqa hosil qildi. Mis kukuni bilan reaksiyada ekstrakt loyqa hosil qildi. Nessler reaksiyasi bilan tekshiriladi. Barcha holatlarda go'shtning tarkibiy qismidagi o'zgarishlar doimiy ravishda bakteriologik tekshirishlarga asoslangan holda xulosa qilinishi talab etiladi.

**Xulosalar.** Majburiy so'yilgan qoramollarning muskul to'qimalarida ko'rsatilgan biokimyoviy o'zgarishlar go'shtning biologik qiymati pasayishiga sabab bo'ldi.

Majburiy so'yilgan hayvonlar go'shtida o'zgarishlar sodir bo'lib bakteriyalarning miqdori bir necha bor ortib ketadi.

Majburiy so'yilgan hayvonlardan olinayotgan go'sht va boshqa turdagi mahsulotlarni veterinariya qonunchiligi asosida har tomonlama to'lig'icha tekshirilishi lozim aks holda mahsulotlar orqali odamlar zaharlanishi mumkin.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Ne'matullaeva, A. B., Ibragimov, F. M., Suyunov, R. U. Veterinarno-sanitarnaya ekspertiza govyadini vyuskaemoe dlya potrebleniya. Yevraziyskiy jurnal med. i yestestvennykh nauk, 3, 55-61.

2. Boysinova, N. B., Achilov, O. E., Isxakova, M. Obespechenie bezopasnosti govyadini v usloviyax prodovolstvennogo rynka Samarkanda. Vitebsk: VGAVM, 2021.-S. 194-197..

3. Murodov, S., Achilov, O., Asomiddinov, U. Qoramol go'shtini veterinariya-sanitariya jihatdan baholash. *Agrobiotexnologiya va veterinariya tibbiyoti ilmiy jurnali*, 273-277.

4. Ibragimov, F., Arzimurodova, R. Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash davr talabi. *Perspektivy razvitiya veterinarnoy nauki i yeyo rol v obespechenii piщevoy bezopasnosti*, 1, 369-374.

5. Rasulov, U.I., Ilyosov, Z.I., Suyunov, R.U., Rasulov, Sh. Bozorlardagi go'shtning yangiligini aniqlash usullari. *Perspektivy razvitiya veterinarnoy nauki i yeyo rol v obespechenii piщevoy bezopasnosti*, 2022 g. 1, 132-136.

#### **Internet ma'lumotlari:**

[www.Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz)

<http://www./infect//ru>

[Zooveterinariya@mail.ru](mailto:Zooveterinariya@mail.ru)

<https://ssuv.uz/uz>